

CHET TILI O‘QITISH MAZMUNINING IJTIMOIY-MADANIY KOMPONENTI

Nishonova Dilfuza Xomidovna

TTYeSI “O‘zbek va xorijiy tillar“ kafedrasida katta vo‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada chet til o‘qitishda munosabatlar muammosi hamda til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi yoritilgan bo‘lib, til o‘qitishda lingvomadaniy komponentning ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan

Kalit so‘zlar: til, madaniyat, muloqot, lingvomadaniy, aloqa, kompetensiya, tilshunoslik, muloqot madaniyati, motivatsiya.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается проблема взаимосвязи и взаимозависимости языка и культуры, оценивается важность лингвокультурной составляющей обучения иностранным языкам.

Ключевые слова: язык, культура, общение, лингвокультурология, коммуникация, компетенция, речевой этикет, мотивация

ABSTRACT. This article is about the problem of the relationship and interdependence of language and culture, the importance of linguocultural component of teaching foreign languages

Key words: language, culture, communication, linguoculturology, competence, speech etiquette, motivation

Til – milliy madaniyat ko‘zgusi, ulkan madaniy-intellektual qadriyatdir. Shuningdek til insoniyat muloqotining eng muhim vositasi bo‘lib, muloqotsiz insoniyat ham mavjud bo‘lmas edi. Shu bilan birga, inson o‘z fikrlarini, umumiy va professional tarzda ifodalaydi va bu yetarlilik bo‘lib, til faqat odamlar o‘rtasidagi muloqot vositasi bo‘lganida, xalqlar allaqachon bu maqsadda lotin, sanskrit yoki esperanto tilidan foydalangan bo‘lar edi. Biroq, har qanday jamiyatning rivojlanishi ona tili bilan chambarchas bog‘liq.

Yuqorida takidlanganidek, til orqali odamlar dunyoni idrok etishning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettirar ekan, bu uning kommunikativ funksiyasini belgilaydi va u bir vaqtning o‘zida pragmatik funksiyasini amalga oshirishga moslashtiriladi. Demak,

inson nafaqat til bilimiga ega bo'lishi, balki uni nutqda qo'llay bilishi kerak. Bundan ko'rinib turibdiki, ijtimoiy-madaniy muhitni bilmasdan, kommunikativ kompetensiyani shakllantirish mumkin emas.

Xar qanday millatning eng muhim belgilaridan biri til hisoblanar ekan, u madaniyat bilan uzviy bog'liq, yani til madaniyatda rivojlanadi va uni ifodalaydi. Fanda madaniyatning 500 ga yaqin ta'riflari mavjud bo'lib, biz madaniyatni millatning barcha ko'rinishlarida uslublar birligi deb bilamiz. Til, madaniyat, uning etnik kelib chiqishi, o'zaro bog'liqligi muammosi fanlararo muammodir va uni hal qilish faqat bir qator fanlar: falsafa, sotsiologiya, tilshunoslik, madaniyatshunoslik kabilarga bog'liq. Shu bilan birga, madaniyatshunoslik insonning ongiga ko'ra tabiat, jamiyat, tarix, san'at va uning ijtimoiy va boshqa sohalariga madaniy munosabati borligini o'rganadi, tilshunoslik esa insonning dunyoqarashni ko'rsatadi, ya'ni dunyoqarash ko'rsatiladi hamda tilning aqliy modellari shaklida mustahkamlanadi.

Bizga ma'lumki, 90-yillarda shakllangan mustaqil fanlararo yo'nalish hisoblangan yangi fan lingvokulturologiya ham tilni, ham madaniyatni doimiy "muloqot", kognitiv-pragmatik o'zaro ta'sirda bo'lgan o'z predmeti deb biladi. Shunday ekan, madaniyatshunoslik insonning o'z-o'zini anglashini tabiat, jamiyat, tarix, san'at va uning ijtimoiy va madaniy hayotining boshqa sohalarini bilan bog'liq holda o'rganadi, tilshunoslik esa uning namoyon bo'ladigan va dunyoqarashini ko'rib chiqadi. Hozirgi vaqtda madaniyat va til o'rtasidagi munosabat juda murakkab va ko'p qirrali bo'lib, bir qator uslubiy yondashuvlar bilan ifodalanadi.

Madaniy materiallarni jalb qilish kognitiv motivatsiyaning uyg'onishiga yordam beradi, ya'ni o'quvchilar nafaqat dasturiy materialni o'zlashtiradilar, balki madaniyatning noma'lum jihatlarilari bilan ham tanishadilar, bu esa, shubhasiz, ularda til o'rganishga yanada qiziqish uyg'otadi. Shunday ekan, o'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan holda o'quv jarayoni tashkil etilganda u yanada samarali bo'ladi. Muloqot madaniyati nafaqat yaxshi tayyorlangan ishbilarmonlarning ajralmas tarkibiy qismi, balki umumiy madaniyat bilan bir qatorda fikrlash madaniyatining ko'rsatkichidir.

Muloqot madaniyati nutqiy xulq-atvorning odob-axloq qoidalarida aks ettirilgan bir qator shartlari va qonuniyatlari bilan belgilanadi. Nutq odob-axloqi ma'ruzachilar tomonidan muloqot holatiga qarab ma'lum formulalardan foydalanishni belgilaydi. Shu bilan birga, ko'plab nutq formulalarida qo'shimcha ma'nolarning mavjudligini hisobga olish kerak. Nutq formulalarining nafaqat funksional-stilistik, balki emotsional tovlanishini ham hisobga olish kerak.

Muvaffaqiyatli muloqot qilish uchun zarur bo'lgan o'rganilayotgan til vakillari nutqi, xatti-harakatlari, milliy va madaniy xususiyatlari to'g'risidagi bilimlarning

yetishmasligi ulatning nutq etikasini o'rganish va bunday ma'lumotlarni o'quv jarayonlariga tatbiq qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Natijada o'quv jarayonida talabalarda chet tili o'qitish ta'limi mazmunining tarkibiy qismi bo'lgan o'rganilayotgan til mamlakati va madaniyati haqida ma'lumot olish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Zamonaviy chet tilini bilish va undan foydalanish o'rganilayotgan tilning verbal va noverbal va keng ko'lamli ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini bilishni, shu bilan birga, tilni o'rgatish talabalarda chet tilining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishni o'z ichiga oladi. Kommunikativ kompetensiya tushunchasi psixologik mintaqaviy tadqiqotlar, ijtimoiy xatti-harakatlar normalariga muvofiq nutqdan foydalanishni belgilaydigan ijtimoiy omillar bilimi sifatida belgilanadi.

Tarkibiy jihatdan, ijtimoiy-madaniy kompetensiya murakkab hodisa bo'lib, quyidagi turli toifalarga mansub tarkibiy qismlar to'plamini o'z ichiga oladi:

- lingvomadaniy komponent milliy-madaniy semantikaga ega leksik birliklar haqidagi bilimlarni, ularni madaniyatlararo muloqot holatlarida qo'llay bilish, milliy maqol va matallar, frazeologik birliklar xalq mentalitetining dan iborat bo'lib, ular o'quvchilarga xalq tafakkuri haqida bilim beradi va bu millat vakillarining qadriyatlar, ustuvorliklar haqida muloqot qilish qoidalari va tamoyillarini o'z ichiga oladi;

- ijtimoiy lingvistik komponent (ijtimoiy qatlamlarning lingvistik xususiyatlari, turli avlodlar, jinslar, ijtimoiy guruhlar, dialektlarning vakillari);

- ijtimoiy-psixologik komponent (ma'lum bir madaniyatda qabul qilingan kommunikativ usullardan foydalangan holda milliy - o'ziga xos xulq-atvor modellari);

- madaniy komponent (ijtimoiy-madaniy, tarixiy - madaniy, etnik-madaniy

Ijtimoiy-madaniy kompetensiya tarkibiy qismlarini shakllantirish va rivojlantirish talabaga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- haqiqiy til muhitining ijtimoiy-madaniy belgilarida harakat qilish-madaniyatlararo muloqot sharoitlariga yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy-madaniy aralashuvni va ularni bartaraf etish yo'llarini bashorat qilish;

- begona muhitga moslashish, begona madaniy muhitdagi qonun va qoidalarga mohirona rioya qilish, boshqa madaniy jamiyat vakillarining an'analari, marosimlari va turmush tarziga hurmat ko'rsatish;

Ijtimoiy-madaniy kompetensiya asoslari esa quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

- ijtimoiy-madaniy kompetensiya turlarini va kasbiy ixtisoslashgan xarakterni rivojlantirish;

- boshqa mamlakatlar, xalqlar, madaniy hamjamiyatlarni mustaqil o'rganishni amalga oshirish;

- xorijiy til muhitida ona tili madaniyatini aks ettirish usullariga ega bo'lish;

- to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita aloqaning boshqa, ilgari o'rganilmagan sohalarida ijtimoiy-madaniy jihatdan o'zini tarbiyalash.

Ushbu maqsadlar uchun chet tili o'qitishning eng muhim ahamiyatga ega jihatlari:

- chet ellik til o'rganuvchilar bilan muloqot konikmasini shakllantirish, hamda ularning madaniy va ijtimoiy sohalaridagi ma'lumotlar bilan tanishish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida chet tilidan foydalanish zarurligini va o'zlashtirilgan til ko'nikmalrini amalda qo'llash imkonini;

- ona tili asosida chet tilida shaxslararo muloqotning elementar malakalarini shakllantirish;

Chet tilini o'qitish mazmunidagi ijtimoiy-madaniy komponent talaba shaxsini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi, chunki bu nafaqat o'z mamlakati madaniyati merosi bilan tanishish imkonini beradi, balki o'rganilayotgan tilning madaniy qadriyatlarini o'z mamlakatining madaniy qadriyatlari bilan taqqoslashga yordam beradi. Bu esa til o'rganuvchining umumiy madaniyatini shakllantirishga zamin yaratadi. Ushbu komponent talabalarning umumiy ijtimoiy, madaniy tasavvurini kengaytirish, ularning kognitiv va intellektual jarayonlarini rag'batlantirish uchun mo'ljallangan. Til va madaniy bilimlar talabaning chet tili muhitiga moslashishiga hamda o'rganilayotgan tilda gapirish va lingvomadaniy tajribani tushunish va qabul qilishga yordam beradi. O'quv jarayonida madaniy va mintaqaviy ma'lumotlardan foydalanish, o'quvchilarning bilim faolligini oshirishni ta'minlaydi, ularning aloqa imkoniyatlarini rivojlanishiga hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Ступин Л.П., Игнатьев К.С. Современный английский речевой этикет. – Л: Изд-во ЛГУ, 1980. – 143 с.
2. Ешич М.Б. Культура в системе общества // Культура в общественной системе социализма: теоретическое и методологические проблемы. – М.: Наука, 1984. – С. 8-54
3. Tolipova Aida Muratovna, Kodirova Gavhar Alisherovna \\ Indoneziya Academia Globe Inderscience Research \\ "THE IMPORTANCE OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES AT TECHNICAL INSTITUTIONS" \\ Volume 2, Issue 5, May, 2021 p. 390-391
4. Yusupalieva Sh, Sattorova S \\ Indoneziya International journal of discoveries and innovations in applied sciences \\ THE IMPORTANCE OF SPEAKING IN EFL CLASSES \\ Volume 1 Issue 4, 2021 P.63-65